O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2026-yil 25-mart | 156-8-0-Q/26 | Surxondaryo viloyati hokimligi

Kuchini yo‘qotgan

Surxondaryo viloyatidagi bozorlar va savdo majmualarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2010-yil 26-apreldagi PQ–1326-son qarorining 4-bandiga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi va Soliq boshqarmasining takliflarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1.Quyidagilar:

viloyatdagi bozorlar va savdo majmualari ma’muriyati tomonidan undiriladigan bir martalik yig‘imlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

viloyatdagi bozorlar va savdo majmualari hududidagi bino-inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdori 2-ilovaga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslarining balansidagi bino va inshootlar hamda yer maydonlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarining miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar haqi miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Termiz shahar va tumanlar hokimlari viloyat Soliq boshqarmasi, hududiy davlat soliq xizmati organlari hamda bozorlar va savdo majmualari ma’muriyatlari bilan birgalikda:

bozorlar va savdo majmualaridan tushadigan bir martalik yigʻimlar, ijara toʻlovi va koʻrsatiladigan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda toʻliq undirilishini;

belgilangan bir martalik yigʻimlar, ijara toʻlovi va koʻrsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini viloyatdagi barcha bozorlar va savdo majmualariga yetkazilishi, sotuvchi va xaridorlarga koʻrinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat oʻrnatilishini taʼminlasin.

3. Surxondaryo viloyat Soliq boshqarmasi bozorlar va savdo majmualari ma’muriyati tomonidan bozorlarda bir martalik yigʻimlar, koʻrsatilgan xizmatlar, foydalanganlik uchun ijara toʻlovlari yigʻim miqdorlarini koʻpaytirish evaziga tushadigan daromadlarni Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda yoʻnaltirilishini ta’minlasin.

4. Viloyat hokimining 2025-yil 24-apreldagi 266-8-0-Q/25-son qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari Sh.Rajabov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi **U.B.Qosimov**

Surxondaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-martdagi
156-8-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarida sotiladigan mahsulotlar uchun olinadigan bir martalik yig‘imlar miqdorlari

T/r	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Termiz shahar, Angor va Denov tumanlarida	Boshqa hududlarda
1.	**Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:**			
1.1	**Mevalar:**			
1.1.1	**Ho‘l mevalar:**			
	olma, anor, nok, shaftoli, anjir, uzum, danakli mevalar (olcha, gilos, olxo‘ri, o‘rik, ko‘k va qizil sulton), rezavor mevalar (qulupnay, malina (xo‘jag‘at), smorodina (qorag‘at) va h.k.	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar.	bir o‘rin bir kunga	16000	14000
1.1.2	**Quruq mevalar:**			
	turshak, bodom, pistalar, sho‘rdanak, o‘rik, mayiz, yong‘oq, yeryong‘oq va h.k.	bir o‘rin bir kunga	17000	15000
1.2	**Sabzavotlar:**			
	kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg‘om, bulg‘or qalampiri, baqlajon, patisson, pomidor, bodring (shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring) hamda pishirilgan jo‘xori va boshqalar	bir o‘rin bir kunga	11000	11000
1.3	**Poliz mahsulotlari:**			
	Handalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv.metrgacha)	bir o‘rin bir kunga	24000	21000
1.4	**Don mahsulotlari:**			
	guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug‘doy, so‘li, arpa va h.k.	bir o‘rin bir kunga	14000	12000
1.5	**Dukkakli mahsulotlar:**			
	mosh, loviya, no‘xat va boshqalar	bir o‘rin bir kunga	14000	12000
1.6	**Sut mahsulotlari:**			
	Sut va qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog‘i va boshqalar	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
1.7	**Tuzlamalar:**			
	karam, bodring, pomidor va boshqalar	bir o‘rin bir kunga	14000	13000
1.8	**Ziravor va dorivorlar (zira, murch, qalampir, nos va boshqalar)**	bir o‘rin bir kunga	14000	13000
1.9	**Asal**	bir o‘rin bir	16000	15000

		kunga		
1.10	**Ko‘katlar (shu jumladan, issiqxonada etishtirilganlar)**	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
1.11	**Tuxum**	bir o‘rin bir kunga	13000	12000
1.12	**Gullar va ko‘chatlar (4 kv.metrgacha)**	bir o‘rin bir kunga	18000	16000
1.13	**Non mahsulotlari** (obi non, patir va boshqalar)	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
1.14	**Uyda tayyorlangan pazandachilik va qandolat mahsulotlari**	bir o‘rin bir kunga	13000	12000
* 1.15	**Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari, salqin ichimliklar va muzqaymoqlar**	bir o‘rin bir kunga	17000	16000
1.16	**Milliy taomlar**	bir o‘rin bir kunga	17000	16000
1.17	**Donali taomlar (xot-dog, gamburger, shaurma, perojki va boshqalar) tayyorlab sotish uchun (1x 2 metr hajmdagi joy)**	bir o‘rin bir kunga	23000	21000
1.18	**Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilari**	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
1.19	**Supurgi, isiriq**	bir o‘rin bir kunga	11000	10000
1.20	**Baliq va baliq mahsulotlari**	bir o‘rin bir kunga	24000	22000
1.21	**Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik mahsulotlari** (4 kv.metrgacha)	bir o‘rin bir kunga	10000	9000
1.22	**Milliy kiyimlar:** (to‘n, do‘ppi, belbog‘ va boshqalar)	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
1.23	**Arqon sotuvchilardan**	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
* 1.24	**Tijorat yo‘li bilan keltirilgan nooziq-ovqat mahsulotlari uchun**	bir o‘rin bir kunga	17000	16000
1.25	**Kanselariya mollari, bolalar o‘yinchoqlari sotuvchilaridan**	bir o‘rin bir kunga	13000	11000
2.	**Go‘sht mahsulotlari:**			
2.1	mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar dumba va h.k. sotish:	bir o‘rin bir kunga	40000	37000
2.2	Tayyor pishgan go‘shtli mahsulotlar (qazi, til, yangilik, ruletlar, kolbasalar va boshqalar)	bir o‘rin bir kunga	20000	19000
3.	**Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish:**			
	yengil avtomashinalardan	1 mashina	27000	24000
	yuk avtomashinalardan (tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan)	1 mashina	43000	40000
4.	Mahsulotlarni yerda sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda)			
	Ho‘l mevalarni (1 savdo o‘rni 6 kv. metrgacha)	bir o‘rin bir kunga	21000	19000
	sabzavotlarni (1 savdo o‘rni 6 kv. metrgacha)	bir o‘rin bir kunga	19000	17000

5.	**Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalari** (Har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch va makkajo‘xori poyasi va boshqalar	1 mashina	20000	19000
6.	**Qurilish materiallarini sotish:**			
6.1	Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish:			
6.1.1	6 kv.metrgacha	bir o‘rin bir kunga	45000	45000
6.1.2	6 dan – 15 kv.metrgacha	bir o‘rin bir kunga	50000	50000
6.1.3	15 dan – 30 kv.metrgacha	bir o‘rin bir kunga	55000	55000
6.2	Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lyustra, svetilniklar va boshqalar) sotish (6 kv.metrgacha)	bir o‘rin bir kunga	20000	19000
7.	**Ilgari foydalanishda bo‘lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:**			
7.1	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	bir o‘rin bir kunga	25000	19000
7.2	Uy-ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	bir o‘rin bir kunga	12000	12000
8.	**Avtotransport vositalarini sotish:**			
8.1	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	80000	70000
8.2	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari	1 dona	90000	75000
8.3	motosikl, motorellyor, mopedlar	1 dona	35000	30000
8.4	velosipedlar	1 dona	23000	23000
9.	**Dehqon bozorlarining chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotiladigan filiallariga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun:**			
9.1	Ot, toy, tuya	1 bosh	55000	55000
9.1.1	bo‘taloq, eshak	1 bosh	45000	45000
9.2	**Yirik shoxli qoramol:**			
9.2.1	sigir buzog‘i bilan	1 bosh	55000	55000
9.2.2	yirik shoxli qoramol	1 bosh	50000	50000
9.2.3	buzoq (6 oylikkacha)	1 bosh	38000	38000
9.3	**Mayda shoxli qoramol:**			
9.3.1	Qo‘y qo‘zisi bilan, echki ulog‘i bilan va h.k	1 bosh	45000	45000
9.3.2	Qo‘y, echki	1 bosh	30000	30000
9.3.3	sut qo‘zi, sut uloq	1 bosh	22000	22000
9.4	Cho‘chqalar va cho‘chqa bolalari	1 bosh	20000	20000
9.5	**Uy parrandalari uchun:**			
9.5.1	kurka, tovuq, o‘rdak, g‘oz	1 bosh	8000	8000
9.5.2	tovuq, kurka, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari	10 bosh	8000	8000
10.	**Dehqon bozorlarining chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotiladigan filiallarida egar, arqon, yugan, halqa va boshqalar sotish (1 — 1,2 pogon metr uchun)**	bir o‘rin bir kunga	12000	12000

11.	**Itlar va mushuklar**	bir o‘rin bir kunga	12000	10000
12.	**Manzarali qushlar va baliqlar**	bir o‘rin bir kunga	12000	10000
13.	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda**	bir o‘rin bir kunga	12000	11000
14.	**Poyabzal ta’mirlash xizmati**	bir o‘rin bir kunga	9000	9000

Izoh:

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’mol mollari bilan savdo qilinganda, bitta savdo o‘rnining o‘lchami 1-1,2 pogono metr, shuningdek, poliz mahsulotlari, gullar va ko‘chatlar, idishli va o‘ramli mahsulotlar sotishda esa 6,0 kv.metrgacha o‘lchamda belgilanadi va shu o‘lchamdan ortiq egallangan o‘rin uchun qo‘shimcha ravishdahar bir savdo o‘rin uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy haqi undiriladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.

Go‘sht-sut, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor masalliqlar va boshqa tez buziladigan mahsulotlarni sotishga faqat sovutiladigan peshtaxtalar, vitrinalar bo‘lgan taqdirda ruxsat beriladi.

Bunda sovutiladigan peshtaxtalar, vitrinalar va muzlatgichlar egallagan bir joy (savdo o‘rni) o‘lchami 2,20 kv.metrga teng o‘lchamda belgilanadi va shu o‘lchamdan ortig‘i uchun qo‘shimcha ravishda har bir savdo o‘rni uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy haqi undiriladi.

**Vaqtincha joylashtirilgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, keyin yig‘ishtirib olish va obyekt ko‘chirilishi mumkinligi asosida joylashtirilgan savdo obyektlar (lotoklar, peshtaxtalar, palatkalar, avtodo‘konlar engil tipdagi konstruksiyali shoxobchalar va boshqalar)dan to‘lovlar mahsulotlar turi bo‘yicha belgilangan bir martalik yig‘imlar miqdorida undiriladi.(1-ilovaning 1.15 hamda 1.24 bandlari)*

Bunda, savdo obyektidan foydalanuvchi bilan bozor ma’muriyati o‘rtasida ijara shartnomasi tuziladi va yig‘imlar oylik undiriladi.

Surxondaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-martdagi
156-8-0-Q/26-son qaroriga
2-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarida sotiladigan mahsulotlar uchun olinadigan bir martalik yig‘imlar miqdorlari inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari

T/r	Inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar turi	O‘lchov birligi	Termiz shahar, Angor va Denov tumanlarida	Boshqa hududlarda
	Inventarlarni ijaraga berish:			
1.1	**Tosh-tarozilar uchun**	1 kunda	9000	8000
1.2	**Katta yuk tortish tarozilar uchun:**			
	150 kg.gacha	1 kunda	12000	11000
	150 kg.dan 1500 kg.gacha	1 kunda	19000	16000
1.3	**Savdo jihozlari uchun** (bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, voronka, patnis, savat va boshqalar)	1 kunda	10000	9000
1.4	**Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun** (xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunda	8000	8000
1.5	**Mahsulotlar uchun brezent berish:**	1 kunda	8000	7000
1.6	**Aravachalar uchun:**			
	kichik hajmdagi yuk aravachalar uchun	1 kunda	10000	9000
	katta hajmdagi yuk aravachalar uchun	1 kunda	12000	10000
1.7	**Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun:** (1 kv.m)	1 kunda	10000	9000
	Reklama uskunalaridan foydalanganlik uchun (1kv. metr)	1 kunda	9000	8000
	Turg‘un savdo shoxobchalarining atrofidan ko‘rgazma stendlar (yoki peshlavha) sifatida qo‘shimcha maydondan foydalanganlik uchun (1 kv. metr uchun bir oylik to‘lov)	1 kunda	90000	70000
2	**Ko‘rsatiladigan xizmat turlari:**			
2.1	**Qishloq xo‘jaligi va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:**			
	sovutkichlarda (har bir yashik, qop va boshqalar uchun)	1 kunda	10000	9000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va boshqalar uchun)	1 kunda	10000	9000
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o‘rni hisobidan)	1 kunda	10000	9000
2.2	**Buyumlarni omborlarda saqlash** (bir 50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)	1 kunda	11000	10000
2.3	**Mahsulotlarni tarozida tortish:**			
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	9000	8000
2.4	**yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo‘lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlaridan:**			
	yuk bilan	1 marta	9000	8000

		o‘lchash		
	yuksiz	1 marta o‘lchash	9000	8000
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnagacha bo‘lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:			
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	9000	8000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	9000	7000
	yengil avtomashinalardan:			
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	9000	7000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	9000	7000
	tirkamali engil avtomashinalardan:			
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	9000	8000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	8000	7000
2.5	**Mehmonxona xizmatidan foydalanish** (1 ta joy uchun)	1 kunda	75000	75000
2.6	**Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:**			
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	8000	5000
	yuk avtomashinalar uchun	1 soatga	12000	10000
	Avtomobil transportida yo‘lovchilarni yo‘nalishlar bo‘yicha tashuvchi transport vositalaridan	1 kunga	20000	20000
	bozor hududidagi tadbirkor(sotuvchi)larning yengil avtomashinalari uchun	1 kunga	10000	10000
2.7	Bozor balansidagi hojatxona xizmatidan foydalanish	1 marta	3000	3000
2.8	Radiouzel orqali e’lon berish	3 marta takror	15000	15000
3	**Bozorlar va savdo komplekslari hududlariga transport vositalarining yuk ortish va tushirish uchun kirishi:**			
	yengil avtomobillar uchun	1 marta kirish	11000	10000
	tirkamali yengil avtomobillar uchun	1 marta kirish	12000	11000
	yuk avtomobillari uchun	1 marta kirish	16000	13000
	motoroller	1 marta kirish	10000	10000
4.	**Boshqa ko‘rsatilgan xizmatlar uchun** (ma’lumotnomalar va boshqalar)	1 marta	20000	20000

Izoh:

Bozor hududida shaxsiy tarozilardan (davlat qiyoslovidan o‘tgan) va boshqa o‘lchov anjomlaridan, shuningdek, yuklarni tashish uchun shaxsiy aravachalardan foydalanilganda, ushbu xizmatlardan belgilangan tariflarga muvofiq to‘lovlar undiriladi.

Surxondaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-martdagi
156-8-0-Q/26-son qaroriga
3-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarining balansidagi bino va inshootlar hamda yer maydonlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarining miqdorlari

T/r	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turi	O‘lchov birligi	Termiz shahar, Angor va Denov tumanlarida	Qiziriq, Bandixon, Muzrabot, Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy (Sherobod-Sher-Baraka) tumanlarida	Sho‘rchi, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Boysun, Termiz tumanlarida
1.	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi:**				
1.1	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. m./oyiga	42000	22000	32000
1.2	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. m./oyiga	38000	22000	32000
1.3	Umumiy ovqatlanish	1 kv. m./oyiga	36000	25000	30000
1.4	Dorixona, paynet	1 kv. m./oyiga	36000	28000	30000
1.5	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv. m./oyiga	24000	17000	21000
1.6	Boshqa turlar (ombor, ofis va boshqalar)	1 kv. m./oyiga	20000	16000	18000

Izoh:

Vaqtincha joylashtirilgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, keyin yig‘ishtirib olish va obyekt ko‘chirilishi mumkinligi asosida joylashtirilgan savdo obyektlar (lotoklar, peshtaxtalar, palatkalar, avtodo‘konlar yengil tipdagi konstruksiyali shoxobchalar va boshqalar)dan to‘lovlar mahsulotlar turi bo‘yicha belgilangan bir martalik yig‘imlar miqdorida undiriladi.(1-ilovaning 1.15 hamda 1.24 bandlari)

Surxondaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-martdagi
156-8-0-Q/26-son qaroriga
4-ilova

Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar haqi miqdori

T/r	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turi	O‘lchov birligi	Termiz shahar, Angor va Denov tumanlarida	Boshqa hududlarda
1.	**Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar: asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan piyodalar yo‘lakchalari** *(trotuar), kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik* bo‘g‘inlari, *umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari. (Bunda mulk huquqi to‘liq jismoniy yoki yuridik shaxsda bo‘lsa)*	1 kv.m./oyiga	25000	24000
2.	**Asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan piyodalar yo‘lakchalari (trotuar) kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari, umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlaridan foydalanganlik uchun** *(Bunda mulk va yer huquqi to‘liq jismoniy yoki yuridik shaxsda bo‘lsa)*	1 kv.m./oyiga	18000	17000

Izoh:

Undiriladigan bir martalik yig‘imlar, xizmatlar va ijara to‘lovlar qiymati barcha ilovalarda QQS bilan birga ko‘rsatilgan.